

KASBIY REFLEKSIV MALAKALARNI SHIFOKOR KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi

Andijon davlat tibbiyot instituti,

“O'zbek tili va adabiyoti,tillar”

kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada shifokorlar kasbiy mahoratining shakllanishi, bosqichlari va o'sish omillari orasida refleksiyaning roli to'g'risida fikr yuritilgan. Shifokor kasbiy mahorati tuzilmasida refleksiyaning ahamiyati va darajasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bo'lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga va kasbiy mahoratlarini rivojlantirishga nisbatan talablar yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi paytda avval o'zlashtirilgan pedagogik mahorat namunalari va uslublarini shunchaki ishga solish emas, balki yangi va ijodiy yondashuvlar asosida ishlab chiqib, so'ngra o'zining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini muntazam rivojlantirish talab qilinmoqda.

Kalit so'zlar: shifokor kasbiy mahorati,metodika,refleksiya, shifokor refleksiya,faoliyat,mahorat,malaka,maqsad,vosita,rivojlanish

ВЛИЯНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ РЕФЛЕКСИВНЫХ НАВЫКОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВРАЧА

Тошматова Мохизатхана Иномидин кизи

Андижанский государственный медицинский институт,

"Узбекский язык и литература, языки"

преподаватель кафедры

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль рефлексии в формировании, этапах и факторах роста профессионального мастерства врачей. Особое внимание уделено значению и уровню отражения в структуре профессиональных навыков врача. Уровень профессиональной подготовки будущих врачей и Требования к развитию профессиональных навыков растут с каждым годом собирается В настоящее время требуется не только использовать ранее приобретенные педагогические навыки и методы, но разрабатывать новые творческие подходы, а затем регулярно развивать свои профессиональные и личностные качества.

Ключевые слова: профессиональное мастерство врача, методология, рефлексия, рефлексия врача, деятельность, умение, квалификация, цель, инструмент, развитие

THE INFLUENCE OF PROFESSIONAL REFLECTIVE SKILLS ON THE FORMATION OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF THE PHYSICIAN

Toshmatova is the daughter of Mohizatkhan Inomidin

Andijan State Medical Institute,

ABSTRACT

The article discusses the role of reflection among the formation, stages and growth factors of professional skills of doctors. Special attention is paid to the importance and level of reflection in the structure of the doctor's professional skills. The level of professional training of future doctors and requirements for the development of professional skills are increasing year by year is going. Currently, it is required not only to use previously acquired pedagogical skills and methods, but to develop new and creative approaches, and then regularly develop one's professional and personal qualities.

Keywords: doctor's professional skill, methodology, reflection, doctor's reflection, activity, skill, qualification, goal, tool, development

KIRISH

O'zbekiston respublikasi davlat rahbari va vazirlar mahkamasi tomonidan oxirgi yillarda chiqarilayotgan bir qator qaror va farmonlarda tibbiyot shifokorlarining kasbiy mahorati juda yuqori darajada bo'lishligi ta'kidlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

Shifokor faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar murakkab tuzilmaga ega bo'lib ularning orasida refleksiya alohida o'rin tutadi. Mazkur tushunchaning fanga kirib kelishi buyuk fransuz olimi Rene Dekart nomi bilan bog'liq edi. Refleksiyaning shaxs takomilidagi ahamiyatini ta'kidlar ekan, Dekart "O'zini o'rganishdan ko'ra samaraliroq mashg'ulot yo'q", degan edi.

Faoliyatga psixologik tayyorgarlikni o'rganish g'oyasi, inson shunchaki kasbiy talablarni bajarishga moslashmaydi, aksincha, mavjud sharoitlarni rivojlantiradi va yengib o'tishga intiladi, degan fikrga asoslanadi. Bu holat faqat moslashish jarayonlarining yetarli emasligini tavsiflaydi, bu shaxsning kasbiy rivojlanish g'oyasini, insonning individual xususiyatlarini, uning kasbiy yaroqlilik darajasini va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda akmeologik rivojlanish variantlariga erishishni aks ettiradi. U yoki bu akmeologik variantni amalga oshirishning muvaffaqiyati, bir tomondan, ma'lum bir shaxsda rivojlanish zarurati qanchalik kuchli namoyon bo'lishiga bog'liq bo'lib, u tegishli qobiliyatlar bilan qo'llab-quvvatlanadi va boshqa tomondan, ushbu variantni noaniq sharoitlarda amalga oshiradi.

Hozirgi davrda refleksiya-o'zini o'rganish, o'zini boshqarish, o'zini rivojlantirish yo'nalishlarida talqin qilinadi. Mazkur atama ifodalaydigan hodisaning turli jihatlari qadimgi Yunonistonlik olimlar Suqrot va Aflotun, mamlakatimizdan yetishib chiqqan ulkan allomalar Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy asarlarida tavsiflangan. Dekartning xizmati ana shu olimlarning asarlarida bayon qilingan hodisalarni tizim holiga keltirishdan iborat bo'ldi. Refleksiyaning inson faoliyatidagi o'rni muhimligini hech kim inkor etmaydi

Ayni paytda refleksiyaning turli kasb vakillari faoliyatidagi o'rnini yoritishda jiddiy notekisliklar kuzatiladi. Pedagoglar mahorati shakllanishida refleksiyaning rolini tadqiq qilishga bag'ishlangan kitoblar MDHga a'zo mamlakatlarda o'nlab chop etilgan, shu mavzuda o'nlab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham himoya qilingan. Shu bilan birga refleksiyaning turli kasb egalari, xususan pedagoglar faoliyatining turli jihatlardagi rolini o'rganishga qaratilgan metodikalar ham ishlab chiqilgan ("O'qituvchi shaxsi kasbiy deformatsiyasini tashxislash metodikasi" (Orel B.E., Andreyev S.P.)), "Hayot mazmunini o'rganishga yo'naltirilgan test" (D.A.Leontev), "O'zini namoyon qilish darajasini aniqlash anketasi" (N.F.Kalina) "Kasbiy qadriyatlar" anketasi (O.S. Nojenkin) va boshqalar. Refleksiya, umuman olganda, odamning mulohazalari, o'zini kuzatishi, ruhiy holati va o'zining harakatlari va faoliyatini o'rganishini anlatadi. Refleksiya ruhiy faoliyatning bir turi bo'lib u individning ichki dunyosiga qaratilgan bo'ladi. Gegel birinchi bor refleksiyaning tafakkurdan tashqari hissiyotlar bilan bog'lashga harakat qilgan edi. Bu haqda u quyidagicha fikr bildirgan edi: "Ma'naviyat rivojlanishida refleksiyaning roli ulkandir. Refleksiya bevositalikdan chetga chiqishdan boshlanadi [2].

I.Kant ta'rifiga ko'ra," refleksiya tasavvurlarning bilishimiz manbalariga munosabati bo'lib shunga munosib tarzda ularning bir-biriga munosabatini to'g'ri aniqlash mumkin" [3].

I.N. Semenov va I.S. Ladenkolarning ma'lumotiga ko'ra, "u (ya'ni refleksiya-E.M.) ijtimoiy jihatdan rivojlangan odamning nazariy faoliyati shakli bo'lib u o'zining barcha harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgandir" [4].

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, shifokor refleksiya uning o'ziga, avvalroq bajargan harakatlari, faoliyatiga, ruhiy sifatlari hamda holatlariga qaratilgan bo'lib, uning o'zini o'zi tahlil qilishga moyilligini anglatadi.

Hozirgi psixologiya va tibbiy psixologiya fanlarida refleksiya shifokorning kelajakka emas, o'tgan davrda yuz bergan terapevtik faoliyatini tahlil qilishi va baholashini bildiradi. Uning ana shu tahlili va baholashida o'ziga qay darajada tanqidiy munosabatda bo'la olishi, bemorni davolashda qanchalik imkoniyatlarga ega ekani, bu imkoniyatlarni boyitish imoniyatlari qay darajada ekanini ifodalaydi. Refleksiya o'tmishga qaratilgan bo'lsa ham, usiz kelajakdagi faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlash qiyin bo'ladi. Refleksiya shifokorning o'zini o'zi boshqarishida muhim rol o'ynash barobarida uning o'zgarib borayotgan vaziyatga moslashuvini, o'zi davolayotgan bemorlarning davolanish jarayoni samaradorligini oshirish uchun yana nimalar qilish kerakligini belgilab olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda refleksiya vrachning terapevtik faoliyatida qaysi jihatlarni o'zgartirish, qanday yangi taktikalarni qo'llash, qanday farmakologik vositalarni davolash tizimiga kiritish kabilarni ham belgilab olishiga yordam bedi. Shu bilan birga u bemorlar bilan munosabatlarni davolash samaradorligini oshirishga yo'naltirish uchun yana qanday choralar ko'rish kerakligini aniqlab olishga ham xizmat qiladi.

Aytish mumkinki, yuqorida bayon qilinganlarning bari shifokor refleksiya qaratilishi mumkin bo'lgan hodisalar qanchalik turli-tuman ekanini ifodalaydi. Shu bilan birga u shifokor ning jamoadagi kasbdoshlari bilan munosabatlari, bemorni davolashda ularning ko'magiga tayanishi mumkinligi, o'zi ham hamkasb jamoadoshlariga bemorlarni davolashda ko'mak berishi mumkinligini ifodalaydi. Shifokorlarning bemorlarni davolashda konsilium o'tkazishlari va konsilium natijalarini kelajakdagi muolajalarda

hisobga olishlari shifokorlarning jamoadagi hamkorligi, ularning o'zaro munosabatlari ham refleksiya predmeti bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Refleksiya shifokorning muolaja jarayonida egiluvchan fikr yuritishi, o'zining fikrlarini samaraliroq amalga oshirishini, bemorlar bilan optimal munosabatlar o'rnatishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ijodiy yondashuvni talab qiladigan vazifalarni bajarar ekan, shifokor o'zining avvalgi tajribalarini qayta ko'rib chiqish, ulardan yanada ijobiyroq va samaraliroq xulosalar chiqarishga harakat qiladi.

Shifokor refleksiyasining eng muhim xususiyatlaridan biri uning muolaja jarayonida bir tomondan cheklashga harakat qilsa, ikkinchi tomondan, ijodiylik uni erkinroq harakat qilishga undaydi. Endi u o'zining kasbiy ehtiyojlarini, burchini to'laroq va chuqurroq anglashga harakat qiladi.

Refleksiya ijtimoiy-madaniy fenomen ekan u shifokorning kasbiy ma'naviyati, kasbiy qadriyatlarini to'laroq tushunishiga, ularni tabiat va jamiyat qonunlariga mos ravishda anglashiga yordam beradi.

Refleksiya evristik usul bo'lib shifokor tomonidan o'z faoliyatini anglash va tahlil qilishga yo'naltiradi. Refleksiyaning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

-elementar refleksiya. Refleksiyaning bu turidan kundalik turmushda foydalaniladi. Uning yordamida atrofdagi voqea-hodisalar va ularga o'zining munosabati xususiyatlari anglaniladi.

-ilmiy refleksiya. Refleksiyaning bu turi ilmiy bilish qonuniyatlari asosida nazariy bilimlarni tahlil qilish va tanqidiy yondoshuvga yo'naltiradi.

-falsafiy refleksiya. Bu tur obyektiv dunyo va ong mavjudligi va rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlari va kishilik madaniyatini yaxlit holda tanqidiy o'rganishni taqozo qiladi.

-kasbiy refleksiya. Refleksiyaning bu turi turli kasb vakillari tomonidan o'z kasbi obyekt doirasida o'ziga va o'z kasbiga munosabatini shakllantiradi. Kasbiy refleksiya turlaridan biri shifokor refleksiyasi bo'lib u shifokorning o'ziga, kasbiga, bemorlarga hamda hamkasblariga munosabatlarini tanqidiy tahlil qilishini taqozo etadi.

Shifokor o'zining tibbiyot to'g'risidagi, bemorlar to'g'risidagi, hamkasblar to'g'risidagi, davolash usullari va vositalaridan foydalanish yo'llari to'g'risidagi bilimlarni boyitib borishi va ko'nikmalarini muntazam rivojlantirishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Shifokor refleksiyasini shakllantirish va ilmiy asosda olib borish tibbiyot oliygohlari yoki fakultetlaridagi ta'lim jarayonida o'rgatilishi maqsadga muvofiq. Hozirgi kungacha mamlakatimizdagi tibbiyot oliygohlarida bu yo'nalishda maqsadga yo'naltirilgan ishlar kam olib borilgan. Bu kamchiliklarni bartaraf etish mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimini Yangi O'zbekistonni yaratish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ishlarning maqsadiga mos bo'ladi.

Ushbu tamoyil shaxsning o'zini o'zi boshqarishning turli darajalarida namoyon bo'ladi: neyrofiziologiya shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonlarini ifodalab, tartibga solish va konstruktiv funksiyalarini bajaradi hamda insonning ichki ma'naviy dunyosining yaxlitligi va dinamizmini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Л.В. Лидак, О.С. Погребная. Рефлексия как условие формирования адекватной «Я-концепции» педагога: монография – Ставрополь: СГПИ, 2008. –128 с.
2. Г.В.Ф. Гегель Энциклопедия философских наук. – М: Мысль, 1974 – Т.1 – 452 с.
3. И. Кант. Критика чистого разума. – М.: Мысль, 1994. – С. 197.
4. И.С. Ладенко, И.Н. Семенов, С.Ю. Степанов. Формирование творческого мышления и культивирование рефлексии / Препринт. – Новосибирск: ИИФФ СО АН СССР, 1990. – С. 117.
5. Рефлексия Белоусов М.А. Большая российская энциклопедия: в 35 т/гл. ред. Ю.С. Осипов. – М.: Большая российская энциклопедия, 2004-2017.